

JURNALIST SURISHTIRUVIDA AXBOROT IZLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar
kafedrası o'qituvchisi
G'aniyeva Mehrangiz
mehrangizganiyeva@gmail.com.tel.
+998771073560

Anotatsiya

Ushbu maqolada jurnalistika janrlari ichida eng murakkab va mas'uliyatli yo'nalish hisoblangan jurnalist surishtiruvda axborot izlash, to'plash va manbalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif surishtiruv jarayonida foydalaniladigan manbalarni tasniflab, ochiq va yashirin ma'lumotlar bazasi, rasmiy idoralar hamda guvohlar bilan ishlash strategiyalarini yoritib beradi. Maqolada jurnalist surishtiruvining bosqichlari (rejalashtirish, dalillar bazasini shakllantirish, huquqiy ekspertiza va h.k.) va hujjatlarning haqqoniyligini tekshirish mezonlari batafsil ko'rsatilgan. Shuningdek, AQShning mashhur "Boston Globe" gazetasidagi ("Spotlight" jamoasi) tarixiy surishtiruv jarayoni misolida faktlarni tizimlashtirish va zanjirli tahlil uslublarining amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *jurnalist surishtiruvi, axborot manbalari, ochiq ma'lumotlar, hujjatlar tahlili, gipoteza, "Spotlight", faktlarni tekshirish, xolislik*

Jurnalist surishtiruvi odamlar, hujjatlar, faktlar va shaxsiy kuzatuvlar kabi bir qator manbalar asosida olib boriladi. Ko'pincha, surishtiruv jarayonida hukumat vakillari oshkoretilishni, omma bilishini xohlamaydigan axborotlar yuzaga chiqishi mumkin. Ammoma materialda bevosita hukumat vakillaridan olingan axborot ham o'rin olgan bo'ladi. Jurnalistlarning jamiyatga xolis xizmat qilish va haqiqat uchun kurashish istagi, ularni surishtiruv olib borishdan ko'zlangan asosiy maqsadidir. Aynan shu maqsad, jurnalist surishtiruvining muhim tamoyillaridan biri bo'lgan xolislikni yuzaga keltiradi.

Surishtiruv davomida jurnalistlar foydalanadigan manbalarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. **Birinchisiga**, jurnalist uchun zarur axborotga ega shaxslar kiradi. Masalan, guvohlar, biron- bir axborot (xat, arxiv, hujjat, kundalik va h.k.)ni saqlovchi odamlar. Bunday insonlardan axborotni olish, ularning xohish-istagi, qolaversa, jurnalistning ularni ishontira olish qobiliyatiga bog'liq.

Lekin jurnalist uchun **ikkinchi** guruhga kiruvchi manbalardan foydalanish nisbatan samaraliroq bo'ladi. Ular ommaviy axborot vositalari bilan bo'lgan, o'zaro aloqasi

qonun tomonidan nazorat qilinadigan turli tashkilot va muassasalardir. Surishtirilayotgan mavzuning rivoji (surishtiruv jarayoni, shartlari, voqealar ketma-ketligi, erishilgan natijalar va h.k.ning bayoni) syujeti bo'lishi shart emas. Sababi, maqsad axborot uchun emas, balki yig'ilgan axborot surishtiruv ishidan ko'zlangan maqsad uchun xizmat qilishi kerak.

“Axborot eskirgan, unchalik qiymatga ega emas yoki u jamoatchilikka ma'lum bo'lgani uchun u haqida hamma biladi”, deb o'ylamaslik lozim. Har qanday axborot hech kimning hayoliga kelmagan paytda “portlagan bomba” samarasini keltirib chiqarishi mumkin. Muayyan masala bo'yicha biror konkret ma'lumotni shunchaki izlamaslik kerak. Manbalarning shunday turini izlash va shunday yondashuvlarni topish kerakki, ulardan yana va yana foydalanish mumkin bo'lsin. Jurnalistning ushbu materialdan foydalanish qobiliyati uning obro'si va mavqei shakllanishida muhim omilga aylanadi.

Jurnalist surishtiruvida ochiq manbalardan foydalanish muhim sanaladi. Hozirgi zamonda ochiq manbalar soni deyarli cheksiz deyish mumkin. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Axborot

- yangiliklarni yorituvchi OAV(gazetalar, jurnallar, TV, radio, Internet)
- ixtisoslashgan nashrlar (ittifoqlar, siyosiy partiyalar, tarmoq uyushmalari va hokazo)
- ilmiy nashrlar
- manfaatdor tomonlar OAV(bunga internetdan foydalanuvchilarning forumlari, moliyaviy tahlilchilar, yangiliklar axborotnomalari yoki turli birlashmalarning jurnallari norozilik guruhlari va hokazo kiradi.

2. Ta'lim markazlarining kutubxonalari. Davlat va nodavlat universitetlar, tibbiy kollejlari, biznes maktablar va boshqalarning kutubxonalari.

3. Davlat organlari. Ushbu organlardan juda muhim ma'lumotlarni topish mumkin.

4.Davlat boshqaruv organlarining kutubxonalari. Parlament axborotnomalari, rasmiy byulletenlar, me'yoriy huquqiy mazmundagi rasmiy nashrlar va boshqa materiallar saqlanadi.

5. Sudlar. Sud bayonnomalari va sud qarorlari.

6. Iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashadigan muassasalar. Ularda aholi bandligi iqtisodiy tarmoqlari, korxonalar to'g'risida turli ma'lumotlar taqdim etiladi.

7. Kadastr muassasalari. Ushbu muassasa mulkdorlar hamda mulkka nisbatan qaytarilmagan kreditlar haqidagi ma'lumotni to'playdi.

8. Aksiyadorlik kompaniyalarining hisobotlari. Yillik hisobot ma'lumotlari va shunga o'xshash hujjatlardan kompaniyalar haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar topish mumkin.

9. Tribunalar yoki kompaniyalar reyestrlari. Har bir mamlakatda kompaniyalar qimmatli qog'ozlarni sotmasligidan qat'iy nazar, kompaniyalar mulkdorlarini qayd etib boruvchi muassasa mavjud.

10. Xalqaro tashkilotlar. Muayyan mamlakatlarga texnik yordam yoki vaziyat haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. (Masalan, YUNESKO, BMT, YUNISEFT va boshqalar).¹

Har qanday jurnalistik material, avvalo ma'lumot berish bilan boshlanadi. Uni qanday tartibda amalga oshirish mumkin. Buning uchun axborotni qay tarzda izlash lozim. Jurnalist surishtiruv manbalariga hodisalar, faktlar, shuningdek jamoat uchun nomalum bo'lgan maxfiy ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Ba'zan tadqiqotning sababi odatda bir qarashda oddiy va oshkoradek ko'rinadi. Lekin uni anglash uchun eng kichik narsalarga diqqatli bo'lish lozim. Jurnalist surishtiruvida qay tarzda manbalar bilan ishlanadi.

- hodisalar;
- insidentlar;
- o'zingizning kuzatuvlaringiz va taxminlaringiz;

Ommaviy axborot materiallari.

- hujjatlar (masalan, savdo organlarining hujjatlaridan rasmiy idoralar buyruqlari va qarorlari, qisman ochiq va maxfiy, rasmiy xususiyatdagi idoraviy hujjatlarga;
- mansabdor shaxslarning bayonnomalari, shu jumladan davlat organlari yoki xususiy tashkilotlarning matbuot relizlari;
- mish-mishlar;

Har qanday jurnalistik tekshiruv quyidagilardan iborat bo'lishi lozim.

Harakat rejasini tayyorlash; bunda jurnalist, surishtiruvni nimadan boshlash kerak ekanligini aniqlab oladi.

Asosiy ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash; surishtiruv uchun kerakli ma'lumotlar, hujjatlar, dalillar, faktlar to'planib, qayta ishlanadi.

Manbalar bilan ishlash; manbaga nafaqat hujjatlar, balki shaxslar ham kiradi. Ular bilan muomala qilayotganda har tomonlama ehtiyotkor bo'lish lozim.

To'plangan axborotni tizimlashtirish; toplangan ma'lumotlarni birin –ketinlikda berish.

Dalil bazasini shakllantirish; dalillar har tomonlaman chuqur o'rganilib, aniq faktlar saqlanib qolinishi lozim.

¹ Y. Mamatova. S. Sulaymonova. Haqiqat izlab: O'zbekistonda jurnalist surishtiruvining samaradorligi omillari"-T.: Extremum- Press", 2015. B-35.

Umumiy intervyu; intervyu faqat olinibgina qolmasdan, uning ishonchligi tekshirilishi shart.

Yuridik ekspertiza;

Materialni tayyorlash.²

Manbalarning haqiqiy yoki qalbaki ekanligi qay tarzda aniqlangan?

1984- yil Geoganning Yuliya shahrida ish boshlagani ko'plab noroziliklarga sabab bo'ldi. Ikkita shifokor Geoganni mahkamaga topshirgan.

1982-yil avgustda Geoganning Yamaykada qurbon bo'lgan yetti nafar jabrdiydasi haqidagi ma'lumot ham bo'lgan. Biroq kardinal Humperto Medeiros Geoganga yana bir imkoniyat bergan.

Margaret Gallant Medeirosga quyidagicha yozgan "Nima bo'lganda ham uning davolaniga ishonmayman. Sababi, Geoganning harakatlarida hech qanday ruhiy sog'lomlik yo'q. Uni davolanish ham natijasizdir."

Ammo "Spotlight" (Diqqat markazida) deb nomlangan jurnalistlar jamoasida savol tug'iladi. Nima sababdan, Gallant Arxiyepiskop Geoganga qo'yilgan aybdan ikki yil o'tgachgina maktub yozgan? Ushbu shikoyat xatidan bir oy o'tgandan so'ng, Gallantdan ikkinchi maktub kelgan. "Nega hech qanday chora ko'rilmayapdi?"

Intervyulardan mohirona foydalanish.

Geogan ishi bo'yicha bir nechta qurbonlardan intervyular olingan. Jabrlanganlardan biri Mak Sorli shunday deydi. "Geogan doim bolalarga yaqin bo'lish uchun, ularni aylanishga, muzqaymoq yeyishga taklif qilar edi. Menga nisbatan tajovvuz qilgan payti 12 yoshda edim. Uzoq yillar mobaynida depressiya va alkogolizmga qarshi kurashdim".

Geoganning amakisi rohib Antoni Muzzi esa u hatto o'z o'g'lini zo'rlaganini ham aytib o'tgan.

Dalillar va faktlarni topishdagi tazyiqlar.

Geoganga qarshi qaratilgan 84 ta fuqorolik davolari va Margaret Gallantning maktublari o'zaro sir tutilgan holda, cherkov sudi qonunlariga binoan ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Biroq noyabr oyida "Boston Globe" gazetasining mashaqqatli harakati natijasida, Oliy sudning sudyasi Svinney bu hujjatlarni ommaga e'lon qilishini buyurdi. Ammo Arxiyepiskop hukumatga ariza bilan shikoyat qilib, "Boston Globe" va boshqa OAV cherkovning ichki ishlariga oid hujjatlardan foydalanishga haqli emasligini ta'kidlab o'tdi. Biroq appellsiya rad etildi. Yozuvlar va shaxsiy fayllardagi depozitlar 26-yanvar kuni OAV da e'lon qilinishi rejalashtirildi.

²Мўминов Ф.А. Методы журналистики и методы деятельности журналистов. Т.: "Университет", 1998.С-127.

Hujjatlarda qayd etilishicha, Geoganni nazorat qilgan kardinal va besh nafar yepiskop, uning yillar davomida qilgan kirdikorlaridan yaxshigina xabardor bo'lgan, biroq bunga qarshi hech qanday chora ko'rishmagan.

Ushbu jurnalist surishtiruvi yordamida butun katolik dunyosining yirik muammosi ochib berilishi natijasida, farzandini ruhoniy qilmoqchi bo'lgan otalarning cherkov haqidagi tasavvurlari salbiy tarafga o'zgargan. Hatto, ruhoniylar maktabida o'qiydigan bolalarning ko'pchiligi ushbu maktabni tashlab ketishgan. Chunki undagi vaziyat barchani ogohlikka chorlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi.–T: Akademiya, 2002. B-139 . 3.2. Karvonali H. Ilg'ab borayotir meni fasllar.–Toshkent.: “Yangi Nashr” nashryoti, 2004.B-46
2. Журналист суриштируви. қисқача таъриф ва тавсиялар.–Т.: 2002. Б-98 . Fan” nashryoti, 1993.B-46
3. Obidov.M. Jurnalist surishtiruvi: tajriba va tahlil. –Farg'ona.: “Farg'ona” nashryoti, 2018.B-91.
4. Mamatova.Y. Sulaymonova. S. Haqiqat izlab: O'zbekistonda jurnalist surishtiruvining samaradorligi omillari– Toshkent .:”Extremum- Press”, 2015. B- . 3.10. Якубов С.С. Ўзбекистон матбуотида журналист текшируви: шаклланиши, тематикаси ва ривожланиши муаммолари (“Хуррият”, “Халқ сўзи” ва “Хуқуқ” газеталарининг 2003 - 2007 й.й. материаллари мисолида). Магистрлик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Т.:ЎзМУ, 2008.Б-234